

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 180 177,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024-yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda 7,2 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-dekabr oylari narxlariga nisbatan 111,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 9,7 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	151 251,8	180 177,4	107,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	146 298,3	175 381,5	107,2
mahsulotlarga sof soliqlar	4 953,5	4 795,9	108,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	146 298,3	175 381,5	107,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	26 171,7	30 143,1	104,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	74 913,2	91 613,3	107,1
sanoat	62 852,2	77 451,1	106,6
qurilish	12 061,0	14 162,2	110,0
xizmatlar	45 213,4	53 625,1	109,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14 792,8	17 864,3	112,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7 478,3	9 664,6	115,1
boshqa xizmat tarmoqlari	22 942,3	26 096,2	105,2

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 57 480,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,4 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	97,3
mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	2,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17,9	17,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	51,2	52,3
sanoat	43,0	44,2
qurilish	8,2	8,1
xizmatlar	30,9	30,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10,1	10,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,5
boshqa xizmat tarmoqlari	15,7	14,8




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 17,2 % ni, sanoat tarmog'i 44,2 % ni, qurilish 8,1 % ni va xizmatlar sohasi 30,5 % ni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,7 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 2,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,6 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,7 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 2,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,3 f.p.) ga ko'paydi .

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-dekabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 16,7 %), sanoatda – 106,6 % (43,0 %), qurilishda – 110,0 % (7,9 %), xizmatlar sohasida – 109,1 % ni (30,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 115,1 % (5,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 105,2 % (14,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 108,8 % dan (2,7 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



7,6 %

YAHM

7,2 %



2,5 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,1 %



6,4 %

Sanoat

6,6 %



21,1 %

Qurilish

10,0 %




9,3 %

Xizmatlar

9,1 %

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 111,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 115,6 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 110,7 % qayd etildi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 96 514,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida – 80 640,9 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 55,0 % ni (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida – 55,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oʻshishi bilan bogʻliq.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2024- yil

80 640,9

55,1 %

2025- yil

96 514,4

55,0 %

